

## “ONA VATAN” KONSEPTINI O’RGANISHDA MAQOL-MATALLAR VA HIKMATLI SO’ZLARNING O’RNI, ULARNING MILLIY-MADANIY KONSEPTUAL BELGILARI

**Mansurbek Odil o’g’li Javliyev**

Termiz davlat universiteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o’qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola "Ona Vatan" konsepti mavzusini o'zbek xalqiga tegishli, xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan maqol-matallar, shuningdek ma'lum taniqli shaxslar tomonidan yozilgan hikmatli so'zlar vositasida ularning milliy-madaniy konseptual belgilarini ochib berishni tahlil qiladi va shu o'rinda konsept terminiga ham alohida to'xtalib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** konsept, konseptual belgi, maqol, vatan, yurt, tematika.

### ABSTRACT

This article analyzes the topic of the concept of "Motherland" to reveal the national and cultural conceptual features of the Uzbek people through proverbs and sayings written by famous people and the term concept is also emphasized here.

**Keywords:** Concept, conceptual symbol, proverb, homeland, country, theme.

### KIRISH

Ma'lumki, konsept termini ongda, nutqda yoki tafakkurda vujudga keladigan oddiy g'oyalar yoki umumiy tushunchalarning umumiy yig'indisini tashkil qiladigan tasavvurni anglatadi. U prinsiplar, fikrlar va e'tiqodlar konseptiyasining asosiy qurilish bloklari sifatida tushuniladi. Konsept tilshunoslik, psixologiya va falsafa kabi bir qancha fanlar tomonidan o'rganiladi va bu fanlarni konseptning mantiqiy va psixologik tuzilishi, ularni qanday birlashtirib fikr va jummlalar tuzish qiziqtiradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Konsept atamasiga oid juda ko'plab nazariyalar vafikrlar bo'lishiga qaramasdan bugungi kungacha aniq bir to'xtamga kelinmaganligini ko'rish mumkin. "Konsept" termin ko'plab fanlarning faol yadroviy tushunchasi o'laroq juda muhim ilmiy xarakter va maqomga ega. Izlanishlarshuni ko'rsatdiki, konseptni o'rganish, bilishning chegarasi yo'q. Bugungi kunda dunyo miqyosida minglab olimlar

konseptning o‘zi nima, u qanday ilmiy hodisa degan savolga hali tugal javobni berolmagan bo‘lsa, konseptning qirralari, strukturasi, kategoriyalari, xarakterini to‘liq ta‘riflashga hali tilshunoslikdek fan ham biroz ojizdek, nazarimizda. Shu bir tushunchaga tegishli yuzlab fikrlarni umumlashtirib qiyoslab ko‘rilsa ularning hech birini noto‘g‘ri deb aytish qiyin, aksincha, ular mazkur tushuncha uchun yangi tasavvur kengliklarini yaratib beradi. Lekin ba‘zi asosli manbalardan foydalangan holda quyida ba‘zi ta‘riflar keltirib o‘tiladi. Xususan, Lingvistik ensiklopedik lug‘atda konsept atamasiga quyidagicha ta‘rif beriladi: «konsept bu - «so‘z ma‘nosi» kabi tushuncha bo‘lib, faqat bog‘lanishlar tizimi nuqtai nazaridan farqlanadi; ma‘no-til tizimida; tushuncha ham mantiqda, ham tilshunoslikda tadqiq etiladigan mantiqiy munosabatlar va formalar tizimida bo‘ladi».Konseptni o‘rganuvchi tilshunos olimlarning konsept haqida fikrlari ichida eng ma‘qul kelgan ta‘rif bu rus olimasi **Pimenov**ning *“Odam nimani bilsa, qanday deb hisoblasa , ichki va tashqi dunyo ob‘ektlari haqida nimani tasavvuriga sig‘dira olsa, u konsept hisoblanadi”* dir.

## MUHOKAMA VA TAHLILLAR

Vatanga bo‘lgan muhabbat, unga nisbatan sodiqlik, o‘z ona yurtini ardoqlash va sevish dunyoning istalgan davlatida, jamiiki xalqlar, elatlar va millatlarning qon qoniga singib ketganini ularning o‘z ota makonini har xil go‘zal va nafis so‘zlar, gaplar, she‘rlar, asarlar, maqollar, matallar, aforizmlar, hikmatli so‘zlar orqali ifoda etishidan ham bilib olish qiyin emas. Vatan juda keng va chuqur ma‘noga ega bo‘lgan, insonlar tomonidan eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlardan biridir. Ta‘kidlash joizki, ‘Ona Vatan’ konseptiga oid maqol-matallar va hikmatli so‘zlarni o‘rganish mobaynida, ularning juda ko‘p va serqirra ekanligi ayon bo‘ldi.

Xalq og‘zaki ijodining ommaviy janrlaridan biri sanalgan maqollar asrlar davomida og‘izdan-og‘izga o‘tib kelib, xalqning dunyoqarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati, tarixi va ruhiy holatini ifodalovchi muhim vosita hisoblanib kelinadi. Maqollarda hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan, qimmatli fikrlarning xulosasi ifodalanadi. “Maqol - xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma‘noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli va muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan”. Maqollar ko‘pincha she‘riy shaklga ega bo‘ladi. Ular o‘zining ixcham, pishiq va puxtaligi bilan ham xalq og‘zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi. Maqollar

chuqur va mukammal mazmunga ega bo‘lib, ularda xalq donoligi, milliy an‘analari, ko‘p asrlik hayot tajribasi mujassamlashadi. Folklor asarlarining boshqa hamma janrlari kabi maqollarda xalqning orzu-umidlari, vatanparvarlik, insonparvarlik hislatlari, qisqasi, barcha ijobiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Maqollar, dostonlar, ertaklar, qo‘shiqlarda ham juda ko‘p uchraydi. Shuningdek, ko‘pchilik xalq ertaklarining oxiri ham qissadan-xissa tarzida maqol yoki tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan biron-bir pand-nasihah bilan tugaydi.

O‘zbek xalq maqollarining tematikasi boy va xilma-xildir. Turmushning hamma sohasida: mehnat jarayoni, jonli suhbatlarda, yozma adabiyotlarda maqol va hikmatli iboralar ko‘p ishlatiladi. Anglatilmoqchi bo‘lgan faktlar obrazli qilib ifodalanadi. “So‘z ko‘rki maqol”, “Yaxshi naql-tomirli aql” deb bejizga aytilmagan. Shuning uchun ham mumtoz ijodkorlarimiz xalq ijodiga, ayniqsa maqollarga ko‘proq murojaat etganlar. O‘tmishda yaratilgan va qo‘llanib kelinayotgan eng yaxshi maqollar xalq donishmandchiligining namunasi sifatida hozirda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Yaratilgan maqollar, matallar va hikmatli so‘zlar birgalikda ma‘naviy boyligimizning qimmatbaho xazinasini tashkil etadi. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi. Maqollar fikrni ta‘sirchan, bunyodkor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to‘g‘ri ma‘noda qo‘llaniladigan xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallar hisoblanadi. Masalan, “Yaxshidan bog‘ qoladi, yomondan dog‘”. “Qimirlagan qir oshar”. Matallar ham xuddi maqollar singari xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil bo‘lgan hayotiy tajribasini ixcham tarzda ifoda topishidir. Quyida maqollarning o‘rni va milliy-madaniy konseptual belgilari bir qancha misollar yordamida ko‘rib chiqiladi:

***Ona yurtning oltin beshiging.*** Bu yerda Vatan konsepti ham ona, ham oltin beshikka qiyos qilinmoqda. Beshik-bu go‘dak orom olib, tinch, osuda uxlaydigan bexavotir joydir. Demak Vatan ham xuddi ona kabi bizga alla aytib, tinch bo‘lishimiz uchun beshik singari bizni qo‘riqlab turadigan maskandir. Maqolda milliy-madaniy konseptual belgilar sifatida *onavabeshik* so‘zlari olingan.

***Vataning tinch sen tinch.*** Yurtning tinchligi sening qo‘lingdadir, uni dushmanlardan qo‘riqlasang oilang tinch, o‘zing tinch bo‘larsan. *Tinch* so‘zi o‘ziga xos konseptual belgi tarzida olingan.

***O‘z uying o‘lan to‘shaging.*** O‘zga yurtda shoh, bo‘lgandan ko‘ra, o‘z yurtningni gadosi bo‘l deb bejizga aytishmagan. Bu yerda *to‘shak* o‘ziga xos

konseptual belgilaridan biri bo'lib, uy ma'nosida ishlatilgan.

***O'z yurtning qadri o'zga yurtda bilinar.*** Bundan xulosa qilinadiki musofir bo'lmaguncha Vatan qadrini, unga bo'lgan sog'inchni his qilish qiyin. Aslida ham shunday. *Qadr* so'zi milliy madaniy konseptual belgi funksiyasida ishlatilgan.

***Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas.*** Eling, yurtning tinch bo'lsa sen ham sog'-salomat yurarsan. *Omon* so'zi o'ziga xos konseptual belgi sifatida qo'llanilgan.

***Vatani borning baxti bor, mehnati borning taxti bor.*** Uysiz, joysiz inson hech qachon baxtli bo'la olmas. *Baxt* so'zi milliy-madaniy konseptual belgi bo'lib kelgan.

***Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tuzi bor.*** Har bir yurtning o'ziga yarasha past-balandliklari va issiq-sovug'i bordir. *Gul* so'zi o'ziga xos konseptual belgi sifatida kelgan.

***Fil tushida Hindistonni ko'rar.*** Hatto fil o'zga yurtlarda o'z makonini sog'in ar ekan.

***Ayrimagin elingdan quvvat ketar belingdan.*** Elidan, yurtidan judo bo'lgan inson xuddi manqurt kabi bo'lar.

***Badqavm bo'lsang ham beqavm bo'lma.*** Yaqiningdan ayrilsang ham, elingdan ayrilma ma'nolarida qo'llanilgan.

***Baliq suv bilan tirik, odam el bilan.*** Baliq suvsiz yashay olmagandek, odam elsiz yashay olmas.

***Begona tuproq, devona tuproq.*** O'zga yurtning tuprog'i ham sen uchun begonadir.

***Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni.*** Har bir inson uchun o'z yurti azizdir.

***Yigit g'ami elida, elning g'ami dilida.*** Yigit el dardiga hamdard degan ma'noda qo'llanilgan.

***Ayrimagin elingdan, Quvvat ketar belingdan.*** Doim eling bilan birga bo'l, bo'lmasa yakkalanib kuchsizlanib qolasan degan ma'noda qo'llanilgan.

Hikmatli so'zlarning 'Ona Vatan' konseptini o'rganishdagi o'rni Vatanni madh etishda ularning muhim vosita ekanligida nomoyon bo'ladi. Umumiy ma'noda ular tugal fikrni anglatuvchi, o'tkir mazmunli qisqa va lo'nda ibora bayt, jumla hisoblanadi. Xalq maqollaridan farqli ravishda hikmatli so'zlar kelib chiqishi jihatidan ma'lum bir shaxs tomonidan aytilgan bo'lib, individualligini saqlab qoladi. O'zbek yozuvchilaridan Hamza, A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda kabi san'atkorlar o'z asarlarida Hikmatli so'zlarning zamonaviy namunalarini yaratib, o'zbek adabiy tilining rivojiga samarali hissa

qo'shganlar. Hikmatli so'zlarni vatan mavzusi bilan bog'langanda uning o'zbek xalqining boy va shonli tarixida juda katta o'rin tutishini bilish mumkin. Butun dunyo bo'ylab, istalgan davlatlardagi adib va arboblardan Vatanni ulug'lamagani, shoirlardan esa Vatanni madh etmagani topilmasa kerak. Vatan haqida ko'p va ho'p aytilgan purma'no va mantiqan o'rinli ta'riflar bo'lgan-ki, ular vaqt o'tishi bilan kuchli falsafiy talqinga ega bo'lganligi bois o'sha xalqning og'zaki ijodi, adabiyoti, ma'naviy va madaniy turmush tarziga singib borib, o'rnashib, hikmatlar xazinasiga aylangan. O'zbek xalqining suyuqli farzandi bo'lgan, har misrasida Vatanga bo'lgan mehri otashin bo'lgan, **Fitrat** shunday deydi: *“Vatan mening jonu tanim sajdagohimdir. U mening to'lin oyim, tinch-omonim, izzatim, sharofatim. Ka'bam, qiblam hamda gulistonimdir”*.

**Hamidjon Hamidiy** va **Mahmud Hasaniylar** hammuallifligida to'plangan *“Mashrik zamin - hikmat bo'stoni”* hamda **M.Saidov** va **Z.Toirovlar** hammuallifligida yaratilgan *“Komillik o'g'itlari”* asaridan o'rin olgan quyidagi hikmatli va qimmatli fikrlar Vatanni tushunish uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi.

**Vatan gadosi - kafan gadosi.** Bu maqol orqali kelajak avlodga vatanni sevish, unga sodiq bo'lish zarurligini uqtiriladi, unib-o'sgan yerni noshukrchilik qilib tashlab ketish juda yomon va xunuk oqibatlariga olib kelishini ko'rsatadi.

**Vatanning tinch - sen tinch.** Vatanning tinchligini saqlash, uning daxlsizligi, ozodligi va mustaqilligini ta'minlash, ona tuproqni dushman oyog'i ostida toptamaslik, vayron bo'lishiga yo'l qo'yimaslik Vatan oldidagi muqaddas burchdir.

**Elu hushimdan ayrildim,**

**Otashi hijrona tushdim.** (Rizoiy) Bu yerda *xijron, ayriliq* so'zlari o'ziga xos milliy-madaniy konseptual belgi funksiyasida ishlatilgan.

**O'tar kunlar, o'tar zamon, Ey Vatanim, bo'lma xijron!** *Hijron* so'zi o'ziga xos konseptual belgi.

**Men ketsam-da, sen bo'l omon! Omon-Vatan, Vatan-omon.** (Avloniy) *Omon* so'zi milliy-madaniy konseptual belgi.

**Eski buzuq xarobada cho'g'dek ayladim vatan,**

**Bir tuzuk oshiyona yuk, kelmasa-kelmasun netay.** (Bayoniy) *Oshiyona* so'zi o'ziga xos konseptual belgi.

**Vatan erur senga ikkinchi ona.** (Anbar Otin) *Ona* so'zi bir necha bor o'ziga xos konseptual belgi sifatida qo'llanilgan.

**Judolik daraxtdir bargi yo'q yolg'iz, Bargi bo'lsa hamki, ammo mevasiz.**

*Judolik* soʻzi milliy-madaniy konseptual belgi.

***Bugun ayriliqdan yuragim giryon, Aziz yorni qoʻldan chiqarib hayron,***

***Na koʻzda uyqu bor, na dilda rohat, Azob oʻti barin aylamish gʻorat!*** (Xoja Samandar Termiziy) *Ayriliq* soʻzi oʻziga xos konseptual belgi.

***Ochib har navʼi maktab, endi himmatni qilib oliy, Vatanni qilgali obod, lozim aylamak gʻayrat.*** (Avaz Oʻtar) *Obod* soʻzi oʻziga xos konseptual belgi.

***Vatan uchun oʻlmoq ham sharaf.*** *Sharaf* soʻzini ham oʻziga xos konseptual belgi sifatida kiritish mumkin.

***Vatandan yiroqlashgan-nomusdan oʻlar.*** *Nomus* soʻzi ham milliy-madaniy konseptual belgi.

***Vatani borning baxti bor, Mehnati borning-taxti.*** *Baxt* soʻzi oʻziga xos konseptual belgi.

***Dushmanga nafrati boʻlmaganning Vatanga muhabbati boʻlmas.*** *Muhabbat* soʻzi oʻziga xos konseptual belgi.

***Yordan ayrilsang ham eldan ayrilma.***

***Yoridan ayrilgan yetti yil yigʻlar, Yurtidan ayrilgan oʻlguncha yigʻlar.***

***Yoringni gul orasidan izla, Erkingni-el orasidan.*** Yuqoridagilarda *yor* soʻzi oʻziga xos konseptual belgi.

***Koʻlning otini baligʻi chiqarar.*** *Koʻl* soʻzi oʻziga xos konseptual belgi.

***Koʻrpang qayerda boʻlsa, Koʻngling shu yerda.*** *Koʻrpa* soʻzi milliy-madaniy konseptual belgi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda vatan va unga oid maqol-matallar va hikmatli soʻzlarning chek chegarasi yoʻqligi ushbu maqolada namoyon boʻldi. Tarixdagi koʻplab buyuk insonlar tomonidan yozilgan hikmatli soʻzlar va xalq tiliga oid boʻlgan maqollarning oʻziga xos va milliy-madaniy konseptual belgilari koʻplab misollar yordamida tahlil qilib chiqildi. Va shuningdek, qadim zamonlarda ham vatanga boʻlgan muhabbat unga boʻlgan ehtirom va yondashuvlar juda yuqori darajada boʻlganligi aniqlandi. “Ona Vatan” tushunchasini juda keng va purmaʼnoligi uning nafaqat maqol-matallar va hikmatli soʻzlar balki boshqa vositalar yordamida ham toʻliq ochib berish mushkulligi asnosida ayon boʻldi. Bu albatta kelgusida ushbu mavzuda yanada koʻproq izlanishlar olib borilishiga turtki boʻladi degan umiddamiz.

## REFERENCES

1. Joseph Goguen "What is a Concept?" Proceedings of the 13th international conference on Conceptual Structures July 2005 Pages 52–77
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma'nolar maxzani, T., 2001
3. Hikmatli so'zlar" *O'zME. H-harfi* Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. Mashriq zamin hikmat bostoni / Translators: H.Khamidi and M.Khasani. Tashkent: Sharq, 1997. – p. 4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
5. Ruziev, K. B. (2020). Proverbs and corpus linguistics. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (6), 64-67.
6. BAKHRITDINOVICH, R. K. The Approach of Paremiology in Parallel Corpora. *JournalNX*, 6(05), 216-222.
7. Ruziev, K. B. (2018). Semantic analysis of the words of value and respect in English and Uzbek.
8. РУЗИЕВ, Х. Б. (2018). Основное значение билингвализма при изучении языка. Развитие и актуальные вопросы современной науки, (4), 101-104.
9. Ruziyev, K. B. (2020). TRANSLATION AND INTERCULTURAL COMMUNICATION. Актуальные научные исследования в современном мире, (11-12), 47-52.
10. RUZIYEV, X. B., & SIDIKOVA, S. A. K. (2019). TRANSLATION PROBLEMS OF PROVERBS AND SOME SPECIAL TIP FOR TRANSLATING FROM ENGLISH INTO UZBEK. Наука среди нас, (5), 100-105.